



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 05 | pp. 171-180 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY STRATEGIYALARNI ISHLAB CHIQUISHNING ILMIY ASOSLARI



Tursunova Nargiza Raximovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

***Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy-investitsion strategiyalarni ishlab chiqishning nazariy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida moliyaviy strategiyalarning korporativ boshqaruv tizimidagi o'рни, kapital tuzilmasini optimallashtirish, investitsion faoliyat samaradorligini oshirish hamda moliyaviy risklarni boshqarish masalalari tahlil qilindi. Shuningdek, moliyaviy-investitsion strategiyalarni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari va ularning korporativ moliya tizimi barqarorligiga ta'siri bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.*

***Kalit so'zlar:** moliyaviy strategiya, investitsion strategiya, aksiyadorlik jamiyati, korporativ boshqaruv, kapital tuzilmasi, moliyaviy risklar, investitsion faoliyat, moliyaviy menejment.*

***Аннотация:** В данной научной статье исследованы теоретико-методологические основы разработки финансово-инвестиционных стратегий в акционерных обществах. В ходе исследования были проанализированы роль финансовых стратегий в системе корпоративного управления, вопросы оптимизации структуры капитала, повышения эффективности инвестиционной деятельности и управления финансовыми рисками. Кроме того, разработаны научные выводы по современным подходам к формированию финансово-инвестиционных стратегий и их влиянию на устойчивость системы корпоративных финансов.*

***Ключевые слова:** финансовая стратегия, инвестиционная стратегия, акционерное общество, корпоративное управление, структура капитала, финансовые риски, инвестиционная деятельность, финансовый менеджмент.*

***Annotation:** This scientific article examines the theoretical and methodological foundations for developing financial and investment strategies in joint-stock companies. During the study, the role of financial strategies in the corporate governance system, issues of capital structure optimization, improving investment activity efficiency, and financial risk management were analyzed. In addition, scientific conclusions were developed regarding modern approaches to the formation of financial and investment strategies and their impact on the stability of the corporate finance system.*

***Key words:** financial strategy, investment strategy, joint-stock company, corporate governance, capital structure, financial risks, investment activity, financial management.*

Kirish

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish, moliyaviy-investitsion strategiyalarni takomillashtirish, moliyaviy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, hamda investitsion faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion muhitni yaxshilash, xalqaro moliya bozorlariga integratsiyani kuchaytirish va korporativ boshqaruv mexanizmining ilg'or tajribalarini tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda. Mazkur jarayonlarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni [1] muhim qonunchilik hujjatlaridan biri sifatida xizmat qilmoqda. Jumladan mazkur qonunchilik hujjatida iqtisodiyotni liberallashtirish, aksiyadorlik jamiyatlarida xususiy sektor ulushini oshirish, davlat ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirish, aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy boshqaruv va investitsion samaradorlikni ta'minlash, shuningdek, kapital bozorini rivojlantirish orqali investitsiya oqimini rag'batlantirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan.

Ta'kidlash kerakki, globallashtirish jarayonlari, xalqaro kapital bozorlari o'rtasidagi integratsiyaning rivojlanishi hamda raqobat muhitining keskinlashuvi aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy strategiyalarni ilmiy va xalqaro zamonaviy tendensiyalari asosida shakllantirish zaruratini namoyon etmoqda. Ayniqsa, korporativ tuzilmalarda uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish, moliyaviy risklarni minimallashtirish va kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirishda moliyaviy strategiyalar muhim boshqaruv instrumenti hisoblanadi. Ushbu mulohazalar, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqish jarayoni korporativ tuzilmalarning strategik maqsadlari, moliyaviy imkoniyatlari va investitsion salohiyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishning ilmiy asoslarini takomillashtirish, moliyaviy-investitsion qarorlarni qabul qilishning zamonaviy yondashuvlarini tadqiq etish, kapital tuzilmasini optimallashtirish hamda korporativ moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot aynan aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy strategiyalarni shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish va ularni amaliyotga samarali joriy etish masalalariga bag'ishlanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi

Xalqaro ilmiy-amaliy tadqiqotlarda aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy strategiyalarni shakllantirish masalasi korporativ boshqaruv, investitsion faoliyat, kapital tuzilmasini optimallashtirish hamda moliyaviy risklarni boshqarish bilan chambarchas bog'liq holda tadqiq etilgan. Ayniqsa, globallashtirish va xalqaro kapital bozorlaridagi raqobatning rivojlanishi sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy-investitsion strategiyalar muhim boshqaruv instrumenti sifatida yondashiladi.

Bugungi kunda Scopus ilmiy ma'lumotlar bazasida moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishning ilmiy-amaliy asoslariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy maqolalar mualliflari Zh.Zhang, B.Sunlarning fikriga ko'ra, moliyaviy strategiya kompaniya tomonidan

belgilangan asosiy maqsadlarga erishish uchun moliyaviy resurslarni samarali boshqarish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun biznesni moliyaviy funksiyasini bajaradigan keng qamrovli rejadir. Moliyaviy strategiya kompaniya bosh strategiyasining tashkiliy elementlaridan biri bo'lib, uning asosiy vazifalari bosh strategiyaning maqsadlariga moslashtirilgan bo'ladi [2]. Iqtisodchi olimlar P.Nachyla, R.Justo moliyaviy strategiyaga tarif berishda uning funksional vazifalariga asosiy e'tiborni qaratgan holda yondashgan. Shu bilan birga moliyaviy strategiyaning asosiy elementlari va ularning tasnifiy jihatlari yoritib berilgan [3]. Olimlarning fikriga ko'ra, kompaniya moliyaviy strategiyasi moliya departamenti faoliyatini optimallashtirish, moliyaviy faoliyatdan pul oqimlari va investitsion jarayonlarni samarali tashkil etish, tashqi muhit sharoitlari o'zgarishi sharoitida ichki korporativ boshqaruv mexanizmlarini moslashtirishga qaratilgan. Moliyaviy strategiyaning asosiy vazifalaridan biri kompaniya moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliya departamentining rolini, mas'uliyatini yanada oshirish bilan birga uning vakolatlarini aniq belgilashdan iborat.

Moliyaviy – investitsion strategiyalar nafaqat kompaniyaning tashqi va ichki sharoitlarda qaror qabul qilishi balki, aksiyadorlar va investorlar huquqlarini himoya qiluvchi alohida tashkiliy tuzilma sifatida yondashiladi. Jumladan, moliyaviy-investitsion strategiya nafaqat kompaniyaning moliyasini (tizimini) boshqarish, balki kompaniya uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishishini ta'minlash, ya'ni kompaniyaning uzoq muddatli strategik maqsad va vazifalariga erishishini orqali istiqbolda kompaniyaning bozor qiymatini maksimal darajada oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilish jarayondir [4]. Korporativ strategiya butun kompaniyaning umumiy faoliyatini nazarda tutadi, funksional strategiya esa umumiy strategiya doirasidagi kompaniyaning o'ziga xos funksiyasini anglatadi. O'z navbatida, moliyaviy strategiya funksionaldir. Shuning uchun uning asosiy maqsadi kapital jalb qilish orqali, samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanadi [5]. Moliyaviy strategiya strategik raqobatdosh ustunlikka erishish uchun kompaniyaning o'z va qarz mablag'laridan foydalanish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha aniq harakatlarning uzoq muddatli dasturi shaklida taqdim etilgan umumiy strategiyaning quyi tizimi sifatida yondashish mumkin. Shuning uchun moliyaviy strategiyaga berilgan ta'rifda strategik va moliyaviy menejment o'rtasidagi munosabatlarning uyg'unlashuvini ko'rish mumkin [6].

O.Xamdamovning fikriga ko'ra "bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy moliyaviy menejment tizimini rivojlantirish orqali moliyaviy-investitsion strategiyalarni ishlab chiqish mexanizmini takomillashtirishga erishish mumkin. Shuningdek, tashqi muhitdagi o'zgarishlarga mos ravishda korporativ moliya siyosatini muvofiqlashtirish, moliyaviy menejmentning xalqaro zamonaviy uslubiyatini joriy etish, moliyaviy strategiyalarni shakllantirishda qo'shimcha instrumentlardan samarali foydalanish, moliyaviy ta'minotning qo'shimcha manbalarini shakllantirishda moliya bozori bilan munosabatlarni rivojlantirish, moliyaviy risklarni boshqarishda xalqaro standartlarni joriy etish, kapital tuzilmasini optimallashtirishda moliyaviy texnologiyalarni tatbiq etishga doir ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirilishi hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir" [7]. X.Axmedovning fikricha, "Korxonalar faoliyati samaradorligini ta'minlashda korporativ strategiyani shakllantirish va amalga oshirish istiqbolli moliyaviy rejalashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Korxonalarda moliyaviy

strategiyani shakllantirish va amalga oshirish ham mikrodarajada, ham makrodarajada taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi. Korxonaning moliyaviy strategiyasini ishlab chiqish zahirida yangi boshqaruv yaxlitligi prinsiplari, ya'ni strategik boshqaruv tizimi yotadi". A.Burxonovning fikriga ko'ra, "moliyaviy strategiya korxonada faoliyatining eng muhim tomonlarini qamrab oladi, moliyaviy resurslarning shakllanishi va foydalanishda zarur bo'ladigan holatni oldindan nazorat qilishni ta'minlaydi, korxonaning moliyaviy sharoitini mustahkamlash uchun sharoit yaratadi" [8]. K.Baxriddinovning fikriga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy moliyaviy boshqaruv uslubiyotini tashkil etish va rivojlantirishda strategik moliyaviy qarorlar qabul qilishning o'rnini muhim ahamiyatga ega. Xalqaro amaliyotda yirik kompaniyalarning moliyaviy, investitsion hamda moliyaviy risklarni boshqarish faoliyati bo'yicha muhim qarorlarni qabul qilish moliyaviy menejment mexanizmi orqali amalga oshiriladi [9].

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlarni umumlashtirgan holda ta'kidlash mumkinki, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy-investitsion strategiya korxonaning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga erishish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, investitsion faoliyat samaradorligini oshirish hamda moliyaviy risklarni minimallashtirishga qaratilgan kompleks boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Moliyaviy-investitsion strategiyalar korporativ boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, kapital tuzilmasini optimallashtirish va bozor qiymatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur strategiya korporativ moliya, investitsion siyosat, risklarni boshqarish va zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanishni o'zaro uyg'unlashtirish orqali aksiyadorlik jamiyatlarining raqobatbardoshligini oshirish, kapital bozoridagi mavqegini mustahkamlash hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi


Tadqiqot jarayonida aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy-investitsion strategiyalarni ishlab chiqishning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganishga qaratilgan mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, korporativ moliya va strategik boshqaruvga oid ilmiy yondashuvlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida tizimli yondashuv, mantiqiy fikrlash, taqqoslash, umumlashtirish, grafik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Moliyaviy-investitsion strategiyaning maqsadi aksiyadorlik jamiyatlarining foydasini maksimal darajada oshirish, boshqacha aytganda, moliyaviy resurslar oqimining ijobiy balansini shakllantirish va faoliyatning barcha turlaridan foyda olish bo'lganligi sababli, moliyaviy strategiya korporativ strategiyaga bevosita "bo'ysunadi" desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Moliyaviy strategiyani boshqaruvning integratsiyalashgan sohasi (moliyaviy va strategik menejment) sifatida ko'rib chiqish mumkin. Shuning uchun moliyaviy strategiya moliyaviy resurslarni boshqarish siyosati va taktikasini ta'minlashi hamda moliyaviy komponent ustuvor bo'lgan uzoq muddatli korporativ maqsadlarga erishishga hissa qo'shishi kerak deb o'ylaymiz. Shuning uchun moliyaviy strategiya funksional strategiya bo'lish bilan birga aksiyadorlik jamiyatining asosiy strategiyasi sifatida tizimli ravishda ko'rib chiqilishi kerak. Shu nuqtai nazardan moliyaviy-

investitsion strategiyani jamiyat umumiy strategiyasining tarkibiy elementi sifatida quyidagicha aks ettirish mumkin deb hisoblaymiz (1-rasm).

1-rasm ma'lumotlariga asoslanib, moliyaviy-investitsion strategiya korporativ strategiyaning muhim tarkibiy elementlaridan biri bo'lib, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi aynan ushbu funksional strategiya tomonidan amalga oshiriladi, deyish mumkin. Shuningdek, moliyaviy strategiya funksional strategiyalarning eng muhim elementlaridan biri ekanligini, moliyaviy strategiya uzoq muddatli moliyaviy maqsadlarga erishish bo'yicha harakatlar tizimi bo'lib, uning asosida korporatsiyaning moliyaviy resurslarini jalb qilish va ulardan foydalanish siyosati mukammal ishlab chiqilishi bilan izohlanadi.



1-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlari korporativ strategiyasining tarkibiy elementlari¹

O'z navbatida moliyaviy siyosat turli manbalar va instrumentlar yordamida moliyalashtirishning zarur hajmini shakllantirishning o'ziga xos mexanizmini, shuningdek, moliyaviy resurslarni aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan holda uning aktivlariga samarali investitsiya qilish mexanizmini o'z ichiga oladi. Albatta, moliyaviy-investitsion strategiyalarning mohiyatan mazmunidan kelib chiqqan holda uning alohida funksiyalari va vazifalari ajratiladi.

Xalqaro integratsiyalashuv jarayonlarining joriy bosqichida ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan berilayotgan tariflarga muvofiq, moliyaviy

¹ Muallif tomonidan tuzildi.

strategiya aniq maqsadlarga erishish uchun xatti-harakatlar tizimi yoki moliyalashtirish va kapitalni jalb qilishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmi sifatida strategik, moliyaviy menejmentning muhim elementi sifatida qaraladi. Boshqacha aytganda, moliyaviy strategiya - funksional strategiyalarning eng muhim turlaridan biri, u moliyaviy faoliyatning uzoq muddatli maqsadlariga erishish bo'yicha harakatlar tizimi bo'lib, uning asosida kapital jalb qilish va ulardan foydalanish siyosati ishlab chiqiladi. Ushbu siyosat turli manbalar va usullar orqali moliyalashtirishning optimal miqdorini shakllantirishning o'ziga xos mexanizmini shuningdek, tashqi muhitning o'zgarish tendensiyalarini e'tiborga olgan holda va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida jalb qilingan moliyaviy resurslarni kompaniyaning aktivlariga samarali investitsiya qilish mexanizmini o'z ichiga oladi.

Aytish mumkinki, moliyaviy strategiya ikki tomonlama funksiyani bajaradi, bir tomondan, moliyaviy mexanizmning asosiy elementi rolini bajaradi, ikkinchi tomondan esa moliyaviy mexanizm elementlarini o'zaro munosabatlarini belgilaydi, bu esa uning zarurati va ahamiyatini ochib beradi. Moliyaviy strategiya kompaniyaning ko'proq tashqi muhit ta'siri bilan bog'liq xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat yo'nalishlari ishlab chiqilishini hisobga olsak, uning tarkibiy qismlarini ikki guruhga bo'lish mumkin, ya'ni: moliyaviy strategiyaning elementlari va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi (2-rasm).




2-rasm. Moliyaviy mexanizm va moliyaviy strategiya elementlarining o'zaro bog'liqligi²

Moliyaviy strategiyaning elementlarini o'z navbatida, moliyaviy usullari va vositalariga bo'lish mumkin. Moliyaviy metodlar deyilganda moliyaviy strategiyaning belgilangan maqsadiga erishishda foydalaniladigan usullar va uslublar majmui tushuniladi. Moliyaviy strategiya instrumentlar esa, o'z navbatida, moliyaviy vositalar,

² Muallif tomonidan tuzildi.

moliyaviy leveraj va moliyaviy strategiyaning samaradorligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarga bo'linadi. Shu bilan birga, moliyaviy leveraj moliyaviy strategiyaning tarkibiy qismi sifatida kapitaldan foydalanish bilan bog'liq moliyaviy risklarni bartaraf etishda muhim o'rin tutadi. Moliyaviy strategiya elementlari o'rtasidagi munosabatlar davlat tomonidan kompaniyalar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari va ichki me'yoriy hujjatlarni amaliyotga tadbiiq etishni ta'minlaydi.

Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan strategik tahlil va rejalashtirishning asosiy natijasi odatda strategik rivojlanish konsepsiyasidir. Albatta mazkur ikkita muhim jihatlar oxir oqibat strategik rejalashtirishning asosini tashkil qiladi. O'z navbatida strategik rejalashtirish investitsion strategiyalarni ham qamrab olib moliyaviy strategiya bilan chambarchas bog'liq, deb hisoblaymiz. Kompaniya moliyaviy menejerlari strategik rejalashtirish jarayonida investitsion strategiyalar va ularni amaliyotga tadbiiq etishga alohida e'tibor qarataishlari kerak. Chunki investitsion siyosatni rivojlantirmasdan moliyaviy faoliyat barqarorligini ta'minlash murakkab jarayon hisoblanadi. Yuqoridagilar asosida aksiyadorlik jamiyatlari investitsion strategiyalarini umumiy strategiyalar tarkibidagi ahamiyati va uning vazifalariga doir algoritmnii quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiqdir (3-rasm).



3-rasm. Aksiyadorlik jamiyati umumiy strategiyasining tarkibiy tuzilishi³

³ Muallif tomonidan tuzildi.

3-rasm ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda aksiyadorlik jamiyati umumiy strategiyasining alohida tarkibiy qismlari bo'yicha istiqbolli strategiyalarning davrlarini belgilab olish mumkin. Xalqaro va milliy amaliyotdagi umumiy strategiyalarning ishlab chiqish va amal qilish davriga doir ko'plab tadqiqotlarni o'rganish asosida, bizningcha ushbu davrlarni quyidagicha ajratish mumkin: kompaniyaning missiyasi va istiqbolli yo'nalishlarini 5-10 yilgacha; kompaniya strategiyasi va uning barcha tarkibiy elementlari bo'yicha 3-5 yilgacha; investitsion va moliyaviy byudjetlarni esa tegishli tarkibiy elementlari bo'yicha 1 yil muddatga.

Albatta bugungi kunda jahon iqtisodiy-siyosiy maydonida ro'y berayotgan keskin o'zgarishlarni inobatga oladigan bo'lsak, biz tomondan taklif etilayotgan strategik muddatlar tabiiyki kamayib boradi. Chunki aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy-investitsion strategiyalari nafaqat davlatning ichki siyosatiga balki tashqi iqtisodiy siyosatga ham bevosita bog'liq hisoblanadi.

Yuqoridagilar asosida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmini rivojlantirishda moliyaviy-investitsion strategiyalarni ilmiy asosda shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, kapital tuzilmasini optimallashtirish, investitsion faoliyat samaradorligini oshirish, moliyaviy risklarni boshqarish hamda zamonaviy moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish korporativ moliya tizimi barqarorligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, moliyaviy-investitsion strategiyalarni korporativ strategiya bilan uyg'un holda ishlab chiqish aksiyadorlik jamiyatlarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshirish, investitsion jozibadorligini ta'minlash hamda bozor qiymatini maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, strategik moliyaviy qarorlarni qabul qilishda xalqaro moliyaviy menejment standartlari, raqamli texnologiyalar va zamonaviy strategik rejalashtirish mexanizmlaridan foydalanish korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Moliyaviy strategiya korxonaning muhim funksional strategiyalaridan biri bo'lib, tashqi vositalar o'zgaruvchanligi sharoitida uzoq muddatli moliyaviy maqsadlarni shakllantirish, ular muvaffaqiyatini ta'minlashning eng samarali yo'llarini tanlash, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish yo'nalishlarini samarali tashkil etish yo'lida moliyaviy faoliyat va moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishning barcha asosiy yo'nalishlarini ta'minlashni o'zida aks ettiradi.

Xalqaro ilmiy-amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy strategiyalarni samarali shakllantirish kompaniyaning bozor qiymatini oshirish, aksiyadorlar daromadlilikini ko'paytirish va investitsion faoliyat samaradorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, rivojlangan davlatlar amaliyotida moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishda kapital tuzilmasini optimallashtirish, dividend siyosatini takomillashtirish, investitsion portfelni diversifikatsiya qilish hamda raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy resurslardan

foydalanish samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv sifatini yaxshilash imkonini bermoqda.

Ayni paytda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ayrim aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular orasida investitsion qarorlarni qabul qilishning ilmiy-uslubiy asoslari yetarli darajada shakllanmaganligi, moliyaviy risklarni boshqarish tizimining takomillashmaganligi, kapital bozorida foydalanish mexanizmining cheklanganligi hamda zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish darajasining pastligi kuzatilmoqda. Mazkur holatlar aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligi va investitsion faoliyat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishda raqamli va moliyaviy texnologiyalardan samarali foydalanish korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, sun'iy intellekt, Big Data, blockchain, raqamli moliyaviy platformalar va avtomatlashtirilgan moliyaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish moliyaviy resurslar harakatini real vaqt rejimida monitoring qilish, investitsion qarorlarni tezkor qabul qilish hamda moliyaviy risklarni minimallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar asosida moliyaviy oqimlarni boshqarish kompaniyalarda kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish, investitsion jozibadorlikni va korporativ shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, xalqaro amaliyotda moliyaviy texnologiyalarni korporativ moliya tizimiga integratsiya qilish kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirish va kapital bozorida mavqeyini mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy strategiyalar bo'yicha istiqbolli prognozlarni ishlab chiqishda ekonometrik tadqiqotlar va iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanish strategik moliyaviy qarorlarning ilmiy asoslanganligini oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, regressiya tahlili, korelyatsion modellar, stsenariy tahlili, VAR va GMM modellaridan foydalanish orqali moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasini prognoz qilish, investitsion risklarni baholash hamda kapital tuzilmasining optimal parametrlarini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, ekonometrik modellar yordamida tashqi iqtisodiy omillar, inflyatsiya darajasi, foiz stavkalari va kapital bozori ko'rsatkichlarining kompaniya moliyaviy barqarorligiga ta'sirini baholash mumkin bo'ladi. Mazkur yondashuv strategik rejalashtirish sifatini oshirish, moliyaviy risklarni oldindan aniqlash va aksiyadorlik jamiyatlarining uzoq muddatli investitsion samaradorligini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmoni.
2. Zhichao Zhang, Bingzhen Sun. Firms' perceived trade policy uncertainty and management's disclosure strategies: Evidence from financial statement comparability, *Research in International Business and Finance*, Volume 75, 2025.
3. Pola Nachyła, Rachida Justo, How do impact investors leverage non-financial strategies to create value? An impact-oriented value framework, *Journal of*

Business Venturing Insights, Volume 21, 2024.

4. Bin Cao, Yuanguang Zhong, Yong-Wu Zhou, The role of completely joint liability in financing multiple capital-constrained firms: Risk sharing, inventory and financial strategies, *European Journal of Operational Research*, Volume 313, Issue 3, 2024.

5. Михель В. С. Определение и выбор финансовой стратегии корпорации // МИР (Модернизация. Инновации. Развитие). 2015. № 1(21). С. 112 - 11.

6. Попов В.М., Ляпунов С.И., Воронова Т.А. Бизнес фирмы и бюджетирование потока денежных средств. – М.: Финансы и статистика. 2013.

7. Xamdamov O.N. Moliyaviy strategiyalarni shakllantirishda multiplikator koeffitsientlardan foydalanish amaliyotini takomillashtirish//Moliya imiy jurnali, 1/2024.

8. Axmedov X. Korxonalarda moliyaviy strategiyani ishlab chiqishning nazariy jihatlari//“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2016 yil.

9. Бахриддинов К.Б. Корхонада стратегик молиявий қарорлар қабул қилишнинг илмий-амалий асослари // “Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил” илмиё электрон журнали. № 1, январ, 2024 yil.

10. Shibata T. and Nishihara M. Optimal financing and investment strategies under asymmetric information on liquidation value. *Journal of Banking & Finance* Volume 146, January, 2023.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

